

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 378.014.15

**O'QUVCHILARNI HARBIY IDEAL HAQIDAGI BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ У
СТУДЕНТОВ ЗНАНИЙ О ВОЕННОМ ИДЕАЛЕ**

**THE NEED TO IMPROVE THE METHODOLOGY OF DEVELOPING STUDENTS'
KNOWLEDGE OF THE MILITARY IDEAL**

Xusanov Davronjon Ma'rufjonovich 

Farg'ona Temurbeklar maktabi harbiy akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlanishning metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, rivojlanishning pedagogik mehanizmlari va texnologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, o'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlanishning metodikasini takomillashtirish zaruriyati tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы совершенствования методики развития знаний учащихся о военном идеале, педагогические механизмы и технологические основы развития. Также проанализирована необходимость совершенствования методики развития знаний учащихся о военном идеале.

Abstract

The article explores the theoretical and methodological foundations of improving the methodology for developing students' knowledge of the military ideal, pedagogical mechanisms of development and technological foundations. It was also analyzed the need to improve the methodology for developing students' knowledge of the military ideal.

Kalit so'zlar: harbiy ideal, milliy, milliy qahramonlik, metodika, hamkorlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: военный идеал, национальный, национальный герой, методология, сотрудничество, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспериментальная оценка, педагогический эксперимент.

Key words: military ideal, national, national heroism, methodology, cooperation, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert evaluation, pedagogical experiment.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda axloqiy madaniyatini rivojlanish va jamiyatda go'zal axloqiy muhitni yaratish, o'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlanish vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axloqiy madaniyatli shaxs o'z xalqi tarixi, ma'naviy merosi va bugungi ijtimoiy taraqqiyotiga befarq bo'lmaydi, o'z hayoti va faoliyatini Vatan taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog'laydi, o'zini millat, mamlakat va ijtimoiy-tarixiy hayotdan chetda tasavvur etmaydi. Axloqiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari birligida uning zamonalivligi, ya'ni har bir davrda erishilgan yutuqlarning shaxs axloqiy hayatida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. SHuningdek asrlar osha sayqal topib kelayotgan axloqiy qadriyatlar ham axloqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Tarixiy va axloqiy qadriyatlarning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri, o'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlanish muammolari R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, P.Petrov, S.I.Tyulyaev, S.P.Tolstov, K.Pirliev, R.R.Safin, I.F.Xarlamov, I.Shchukin, B.To'ychiev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diev, E.Safaeva, N.Remeev, Ya.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjaev, Q.SHonazarov,

PEDAGOGIKA

H.Boltaboev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlariga, xalqlarning madaniyatiga va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yod g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlama bo'lib qolayotganligi sababli bu yo'nalishda qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.06.2019-yildagi PQ-4375-sun qaroriga ko'ra, quyidagilar "Temurbeklar maktablari"ning asosiy vazifalari etib belgilangan:

o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyatiga va urfatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylig, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

xalqimizning tarixi va boy madaniyatiga, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo Amir Temurning bebafo merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurban qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash;

o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlanirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish, shuningdek, ularga harbiy ishdagi boshlang'ich bilimlarni singdirish;

notiqlik va yetakchilik xislatlariga ega, jismonan rivojlangan, chidamli, mard va jasur Vatan himoyachilarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar rezervini shakllantirish maqsadida respublikaning oliy, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni tayyorlash.

Shaxs va jamiyat ideali strategik maqsadlar bilan birga tarixiy-madaniy merosdan olingan tasavvurlardan iborat. Bunday ideal jamiyat taraqqiyoti va tarixiy-madaniy tajriba uyg'unlashuviga asosida shakllanadi.

Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, kishilar idealni ko'pincha o'tmishdan, tarixiy-madaniy tajribadan izlashga moyildirlar. Falsafa fanlari doktori, professor S.A'zamxodjaevaning yozishicha, ideal subyektiv voqelik, orzu, tilak va baxtli kelajakka oid tasavvurlar ifodasi sifatida o'tmishdagagi voqelikni kelajakka proektsiya qilish kuchiga ega. Proektsiya esa mavjud tajribani kelajakka tatbiq etish, o'tkazishdir.

Idealda ham, qahramonlikda ham shaxs ni olijanob maqsadlar bilan yashashga da'vat bor. Bu da'vat el, yurt, vatan, taraqqiyot manfaatlari bilan yashashni nazarda tutadi. Qahramonlik, u ergashadigan ideal shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishni, zarur bo'lganida shaxsiy niyatdan voz kechishni taqozo etadi. Qahramonlikda mudom vatanga oid nimadir bor bo'ladi, vatanparvarlik va elparvarlik tuyg'usisiz qahramonlik yo'q. Quduqqa tushib ketgan mushukni yoki qo'zichoqni qutqarish uchun o'zini quduqqa tashlagan kishini biz qahramon atamaymiz, ammo ushbu harakat inson, go'dak hayotini qutqarishga qaratilsa, uni biz qahramonlik ataymiz. Demak, qahramonlik inson, el, vatan uchun fidoyilikdir.

Vatanparvarlik faqat chegarada turib dushman yo'lini to'sish emas, u vatan ravnaqi uchun sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, davlat ramzlarini tarannum etish, vatan tabiatini kuylash, maqsadlariga xizmat qilish, mehnati bilan vatan sharafiga sharaf qo'shishdir. Tinch, ammo fidokorona mehnat, xokisorlik bilan vatanparvarlikka oid qadriyatlarni e'zozlash, egoistik mayllardan kechib, xalq, millat farovonligiga xizmat qilishdir. Bu yerda ideal xalq, millat farovon yashashini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Demak, ideal ob'ektivlashishi, ya'ni real xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi darkor.

Ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq kelgan qahramonlik ijobiy xususiyatga ega. To'g'ri, bu o'rinda qahramonlikka subyektiv, tayyor tasavvurlar nuqtai nazaridan yondashish ham mavjud. Bunday yondashuv keng qahramonlik fenomenini tor qarashlar, sxema doirasida baholashni

keltirib chiqaradi. Masalan, Sobir Rahimov va o'n to'rt yetim bolani tarbiyalagan Shomahmudovlar haykallarini Toshkentdagi maydonlardan olishga oid qaror avtokratik boshqaruv hukm surgan davrdagi qahramonlik haqidagi umuminsoniy tasavvurlarni tor, mafkuraviy sxemaga solish edi. Hozir ular o'z o'rniqa qaytarildi. Jamiat hayotida, kishilar ongida qahramonlik fenomeni sifatida shakllangan qadriyatga salbiy munosabat kishilarda ijtimoiy taraqqiyot haqida noto'g'ri, noob'ektiv fikrlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy taraqqiyotning o'z qonunlari bor. Bu qonunlar inson xatti-harakatlarining mezoni hisoblanadi. Ularga egoistik maqsadlardan voz kechish, o'z hayoti va amallarini ijtimoiy tartiblarga, qonunlarga qarshi qo'ymaslik, etnomadaniy omillardan kelib chiqish, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish kabilalar kiradi. SHunday ekan, qahramonlik ana shu qonunlarga muvofiq kelganida vatanparvarlik tuyg'usiga aylanadi.

Ijtimoiy-tarbiyaviy maqsadni taraqqiyot qonunlari shakllantiradi. U o'zidan o'zi, mexanik tarzda, davlat, jamiat va taraqqiyot talablaridan tashqarida shakllanmaydi. Ijtimoiy hayotdagi mavjud qadriyatlar, qonunlar ayniqsa, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tarzidagi modellari tarbiyaga alohida maqsad qo'yadi. Bu maqsad strategik va taktik xususiyatga ega. Strategik xususiyatli maqsadga insondagi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan ta'lim, tarbiya, targ'ibot ishlari kiradi. Ular insonda gumanizm, hayotsevarlik, olijanob fazilatlarni shakllantirish bilan bog'liq. Hayotsevarlik, «hayothi asrash» insonni tarbiyalashning azaliy vazifasi sifatida keladi6. Ijtimoiy tarbiyaviy maqsad qahramonlik fenomenini ana shu azaliy vazifaga yo'naltiradi. Taktik xususiyatli tarbiya bugun, yaqin yillarda jamiat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan, hozir O'zbekiston 2030-yillarga borib jahondagi ilg'or, rivojlangan 50 davlat qatoriga kirishi uchun innovatsion rivojlanishga intilmoqda. Bugun ijtimoiy tarbiya oldiga innovatsion tafakkurli shaxslarni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yemoqda. Biroq bu vazifa davr o'tishi bilan boshqa vazifaga almashadi. Bu ijtimoiy hayot, taraqqiyot qonuni, talabidir.

Chunonchi, vatanparvarlik talqinida fenomen (yun. phainomenon – yuz beruvchi) tushunchasi noyob, kam uchraydigan hol yoki buyuk, yagona bo'lgan inson deyish mumkin. Falsafa tarixida fenomen mohiyat yoki hodisaning ifodasi yohud namoyon bo'llishi sifatida talqin qilinadi (Leybnits, SHelling, Gegel). Shu ma'noda harbiy vatanparvarlik fenomeni ma'naviy-axloqiy merosdagi in'ikosi ijtimoiy-tarixiy hayotda tub burilish yasagan va xalqning erki, ozodligi hamda kelajagini ta'minlash yo'lidagi kurashning yo'lboschchisi va bu faoliyatning axloqiy namunasi sifatida namoyon bo'lgan shaxslar siymosi bilan belgilanadi. Yovuz bosqinchilarga va istilochilarga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'targan Shiroq, To'maris, Spitamen, Mahmud Torobi, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdli, Amir Temur kabi ajdodlarimiz jasorati avlodlar uchun vatanparvarlik va shijoat timsoli hisoblanadi.

Darhaqiqat, inson o'z hayoti davomida turli ijtimoiy shart-sharoitlarni boshidan kechiradi, ideal sifatida qabul qilsa bo'ladigan shaxslar, fazilatlar bilan to'qnashadi. Real timsollar doimo insonga bevosita his-hayajonli ta'sir etadi. Bu timsollar har xil: biror shaxs, badiiy asar qahramoni, go'zallik siymosi, o'tmis ajdodlarning buyuk timsollari, ularga taqlid va ergashish hollari axloqiy idealning mavhum umumlashma tasavvurdan moddiylashuv, «yashash» tarzini belgilaydi. Mana shunday taqlid va ergashish tufayli insonda axloqiy idealga yaqinlashish, tanlash, intilish, unga erishish singari baholash jarayoni shakllana boshlaydi.

XULOSA

Harbiy ideallik to'yg'usi ham tarixan shakllanadigan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar sirasiga kiradi: uni ham fazilat, ham meros, ham qadriyat sifatida talqin va tadqiq etish zarur. Bizningcha, harbiy vatanparvarlikni ma'naviy-axloqiy merosdagi in'ikosi avvalo, axloqiy idealga aylangan va o'zida yuksak fazilatlarni mujassam etuvchi xalq dostonlaridagi qahramonlar timsolda namoyon bo'ladi. Bularga xalq og'zaki ijodi - folklor bilan bog'liq ilmiy-badiiy manbalar kiradi. Ta'kidlash zarurki, o'zbek xalq harbiy ideallik fenomeni axloqiy ideal vositasida ijtimoiy-ma'naviy hodisaga aylanadi. Odatda, axloqiy ideal insonlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy tajriba, tabiiy muhit, diniy tasavvurlar, urf-odatlar, an'anlar, inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq g'oyalar negizida shakllanadigan yetuklik va komillik sari chorlovchi timsol hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.06.2019 yildagi PQ-4375-son, <https://lex.uz/docs-4417961>

PEDAGOGIKA

2. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования Для пед. спец. высш. учеб. заведений. — Москва," Просвещение", 1990. – 141 с.
3. Аъзамходжаева С. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. 222-б. — Тошкент: Фалсафа ва ҳуқук институти нашр., 2007.
4. Битинас Б. П. Педагогическая диагностика: сущность, функции, перспективы // Совет, педагогика, — 1993. № 12. - С. 3.
5. Замилова Р. Герои и героическое: этикофилософский анализ. 2.с. 12-14 — Тошкент: Noshir, 2013.
6. Карлейл Т., Герои почитание героев и героическое в истироии. — Москва: Эксмо, 2008.
7. Ҳайдаров Х. Ислоҳотлар қонунияти. — Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
8. Шермухаммедов С. Ш. Маънавий маданият ва ижтимоий тараққиётнинг ўзаро таъсири муаммолари. Фрона. Илмий тўплам. 1999. Б. 38-46.